

BANK OMONAT SHARTNOMASI

№ _____

_____ sh

“ ” _____ 20__ y.

Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” ATB (bundan buyon matnlarda “Bank” deb nomlanadi) nomidan _____ 20__ yildagi _____-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning _____ boshqaruvchisi/boshligi _____ bir tarafdin va jismoniy shaxs _____ (bundan buyon matnlarda “Omonatchi” deb nomlanadi) ikkinchi tarafdin, birgalikda esa “Taraflar” deb yuritiladi, ushbu shartnomani (Bundan buyon matnda “Shartnoma” deb nomlanadi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

SMS xabar* – Omonatchining roziligi bilan uning uyali aloqa telefon raqamiga omonat hisobvarag‘i orqali bajarilgan amaliyotlar to‘g‘risida yuboriladigan xabar.

2. SHARTNOMANING PREDMETI

2.1. Bank mazkur shartnomaga asosan Omonatchidan pul mablag‘ini omonatga qabul qilib oladi va shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida omonat summasini qaytarish va unga foizlar to‘lash majburiyatini oladi.

2.2. Bank omonatga foizlarni omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, omonat mablag‘i omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko‘ra omonatchining hisobvarag‘idan o‘chirilgan kundan oldingi kungacha hisoblanadi.

3. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Omonatchining majburiyatlari

3.1.1. Omonat xisobvarag‘idagi pul mablag‘ini olish niyatida bo‘lsa, bu haqda Bankni omonatni olishni mo‘ljallagan sanadan kamida bir oy oldin o‘zi hoxlagan usulda xabardor qiladi.

3.1.2. Shaxsiy rekvizitlari (yashash manzili, telefon raqami, shaxsini tasdiqlovchi hujjati) o‘zgargan taqdirda, 10 (o‘n) kun muddat ichida Bankni xabardor qiladi.

3.1.3. Amalga oshirilgan bank operatsiyalari uchun to‘lovlarni Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan bank tarifiga (<https://hamkorbank.uz/uz/physical/tariffs/>) asosan to‘lash.

3.2. Bankning majburiyatlari

3.2.1. Omonatchiga omonat summasini va unga hisoblangan foizlarni ushbu Shartnomaning 5.5-bandida belgilangan muddat kelgandan so‘ng to‘liq qaytarishni ta‘minlaydi. Agarda, omonatni qaytarish kuni dam olish yoki bayram kunlariga to‘g‘ri kelsa, u holda to‘lovlar keyingi bank ish kunida amalga oshiriladi.

3.2.2. Omonatchining arizasiga asosan naqd pulsiz mablag‘ o‘tkazish bo‘yicha topshirig‘ini keyingi bank ish kunidan kechikmagan holda bajaradi.

3.2.3. Yozuv satrlari to‘lgan, yoki yaroqsiz holga kelgan, yoki yo‘qotilgan omonat daftarcha o‘rniga Omonatchining nomiga yangi omonat daftarcha rasmiylashtiradi.

3.2.4. “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Omonatchining omonat hisobvarag‘idagi pul mablag‘lari bo‘yicha to‘la hajmda haq to‘lash kafolatlangan.

3.2.5. Omonatchilar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan cheklovlar o‘rnatishga haqli emas.

3.2.6. Omonatchining omonat hisobvarag‘idan amaliyotlar bajarish to‘xtatilganligi yoki uning topshirig‘isiz omonat hisobvarag‘idan mablag‘lar o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi xabarni Omonatchi tanlagan usulda keyingi ish kunidan kechikmagan holda yuborish.

4. TARAFLARNING HUQUQLARI

4.1. Omonatchining huquqlari

- 4.1.1. Omonati bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik Kodeksi"ga asosan ishonchnoma berishi yoki vasiyatnoma rasmiylashtirishi mumkin.
- 4.1.2. Uchinchi shaxslar tomonidan Omonatchining omonat daftarchasini yoki omonat daftarcha rasmiylashtirilmagan bo'lsa omonat hisobvarag'i to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni taqdim qilganda omonat xisobvarag'iga pul mablag'lari kirim qilinishi mumkin.
- 4.1.3. Yozuv satrlari to'lgan yoki yaroqsiz holga kelgan, yoki yo'qotilgan omonat daftarchalar o'rniga yangi omonat daftarcha rasmiylashtirib berishni talab qilish.
- 4.1.4. O'zining shaxsiy identifikatsiya raqami, login va paroli yordamida masofaviy bank xizmati tizimlari orqali omonat hisobvarag'i to'g'risidagi ma'lumotlarni olish.
- 4.1.5. SMS xabarni omonat hisobvarag'i ochish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan telefon raqamiga yuborishni talab qilish.
- 4.1.6. Bank xizmatlari uchun to'lovlarni amalga oshirish shaklini o'zi mustaqil tanlash.
- 4.1.7. Omonat hisobvarag'idan amaliyotlar bajarish to'xtatilganligi yoki uning topshirig'isiz omonat hisobvarag'idan mablag'lar o'tkazilganligi to'g'risidagi xabarni pochta orqali / SMS xabar orqali / telefon orqali shaxsan / olish usulini (omonatchi tomonidan tagiga chizish orqali belgilanadi) tanlash.

4.2. Bankning huquqlari

- 4.2.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunlariga asosan omonat hisobvarag'i xatlanganda, Bank tomonidan omonat hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar bajarish to'xtatiladi. Omonatchining hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida Bank ushbu hisobvaraqdagi pul mablag'laridan foydalana olmagan davrlar uchun foiz hisoblamaydi.

5. SHARTNOMA BAHOSI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

5.1.	Omonat nomi / turi	«_____» / _____
5.2.	Omonat summasi	_____ (_____) so'm
5.3.	Omonat daftarcha seriya va rakami	№ _____
5.4.	Omonatning muddati	_____ (_____) oy
5.5.	Omonat muddatining oxirgi sanasi	“__” _____ 20__ y.
5.6.	Omonatni yillik foiz stavkasi *	_____ (_____) foiz
5.7.	Omonat xisobvarag'ini _____ oydan avval yopilganda belgilangan foiz *	_____ (_____) foiz
5.8.	Omonat xisobvarag'ini _____ oydan so'ng omonatning muddati davomida yopilganda belgilangan foiz*	_____ (_____) foiz
5.9.	Omonat muddati tugagandan so'ng omonatni saqlangan kunlar uchun belgilangan foiz *	_____ (_____) foiz
5.10.	Omonatga qo'shimcha badal kiritish	Mumkin / Mumkin emas
5.11.	Omonatdan qisman chiqim qilish	Mumkin / Mumkin emas
5.12.	Omonat bo'yicha foiz to'lash tartibi	Har oyda / omonat yopilganda
5.13.	Omonat _____ oydan avval talab qilib olinganda yoki shartnoma bekor qilinganda, omonat foizlar shartnomaning 5.7-bandiga asosan qayta hisoblanadi va ortiqcha to'langan foizlar omonat summasidan chegirib qolinadi.	
5.14.	Omonatni saqlash muddatidan tugagandan so'ng omonat mablag'iga shartnomaning 5.9-bandida belgilangan miqdorda ustama foiz hisoblanadi.	

6. TARAFLARNING JAVOGBARLIGI

6.1. Taraflar ushbu Shartnomaga asosan o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun amaldagi qonunchilikka asosan javobgar bo'ladilar.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH KIRITISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Shartnoma omonat xisobvarag'i ochilgan kundan boshlab omonat xisobvarag'i yopilgunga qadar amal qiladi.

7.2. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar taraflarning kelishu-viga muvofiq, shuningdek, mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda kiritiladi. Shartnomaga o'zgartirish yoki qo'shimcha kiritish istagini bildirgan taraf, ikkinchi tarafga bu haqda 10 kun oldin xabar berishi lozim.

7.3. Shartnoma taraflarning kelishuviga muvofiq bekor qilinishi mumkin.

7.4. Ushbu shartnoma bir tarafning talabi bilan ikkinchi taraf shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonun hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

7.5. Bank omonat shartnomasi shartlariga Omonatchining huquq va qonuniy manfaatlariga daxl qiladigan o'zgartirishlarni Bank tomonidan bir tomonlama kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH

8.1. Agar shartnoma ishtirokchilarida ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalilga ega bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi tomonga yozma shaklda xabar berish majburiyatini oladi.

8.2. Xabarni olgan tomon haqiqatda korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lgunicha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

9. MAXFIYLIK

9.1. Mazkur shartnomani tuzish va bajarish vaqtida Taraflar bir-biridan olgan barcha ma'lumotlar maxfiy axborotlar deb tan olinadi.

9.2. Shartnomani tuzish va shartnomadan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarish chog'ida boshqa Tarafning tijorat siri hisoblangan maxfiy axborotlar va ma'lumotlarni axborot egasining yozma roziligisiz oshkor qilmaslik majburiyatini oladi.

9.3. Mazkur talab nomuayyan muddatga amal qiladi.

9.4. Ushbu talablarni buzgan Taraf buning oqibatida ikkinchi Tarafga yetkazilgan barcha zararni to'liq hajmda qoplaydi.

10.FORS-MAJOR HOLATLARI

10.1. Yengib bo'lmaydigan kuchlar (fors-major) holatlari — bu Taraflarning irodasi, hoxishi va faoliyatlariga bog'liq bo'lmagan tabiat hodisalari (zilzila, ko'chki, bo'ron, qurg'oqchilik va boshqalar), ijtimoiy-iqtisodiy holatlar (urush holati, qamal va boshqalar), xalqaro, banklararo va bankning elektron to'lov hamda ta'minot tizimidagi nosozlik, bankning dasturiy ta'minot tizimiga qilingan tahdid (uchinchi shaxslar tomonidandan qilingan hujumlar) sababli yuzaga kelgan sharoitlarda Taraflarga qabul qilingan majburiyatlarni bajarish imkonini bermaydigan favqulodda, oldini olib bo'lmaydigan va kutilmagan holatlardir.

10.2. Fors-major holatlari yuzaga kelgan vaqtda Taraflar ushbu holatlar bartaraf etilguniga qadar shartnoma bo'yicha o'zaro majburiyatlarini bajarishdan ozod bo'ladilar.

- 10.3. Yuzaga kelgan Fors-major holatlari haqida hamda ushbu holatlar yakunlangan-ligi haqida Taraf ushbu holatlar yuzaga kelgan yoki bartaraf etilgan vaqtdan boshlab, 3 bank ish kunida bu haqda ikkinchi Tarafni yozma ravishda xabardor qilishi lozim.
- 10.4. Fors-major holatlari yuzaga kelganligi yoki bartaraf etilganligi haqidagi xabarnomalar Taraflarda mavjud bo'lgan barcha aloqa vositalari orqali yuborilishi mumkin (SMS va MMS xabarlar bundan mustasno).
- 10.5. Fors-major holatlari 30 kun mobaynida bartaraf etilmagan taqdirda Taraflar ushbu shartnomani muddatidan oldin bekor qilishga haqli bo'ladilar.

11. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 11.1. Taraflar mazkur shartnomani bajarish vaqtida yuzaga kelgan kelishmovchilik yoki nizolarni muzokara yo'li bilan hal etadilar.
- 11.2. O'zaro kelishuv imkoniyati bo'lmaganda, huquqi buzilgan Taraf tomonidan yuborilgan talabnoma yoki ogohlantirish xatiga ikkinchi Taraf mazkur talabnoma yoki ogohlantirish xatida ko'rsatilgan muddat ichida javob berishi lozim.
- 11.3. Talabnoma yoki ogohlantirish xati tarafga shaxsan topshirish, elektron pochta manziliga yuborish yoki pochta aloqa xizmati orqali buyurtma xat bilan yuborish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 11.4. Tinch yo'l bilan hal etilmagan nizolar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida belgilangan tartibda Sud orqali hal etiladi.
- 11.5. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzildi. Ikkala nusxasi ham bir xil yuridik kuchga ega, Shartnomaning bir nusxasi Bankda, ikkinchi nusxasi Omonatchida saqlanadi.

12. TARAFLARNING YURIDIK MANZILI, REKVIZITLARI VA IMZOLARI

“OMONATCHI”

Tug'ilgan sanasi: _____
Pasport № _____
Berilgan joyi: _____

Berilgan sana: _____
IMZO _____

“BANK”

Tel: _____
Aloqa markazi: 0 800 1-200-200
@-mail: contact@hamkorbank.uz
Boshqaruvchi: _____
IMZO _____
M.U.